

## **O‘ZBEKISTONDA NEVROLOGIYA SOHASIDA O‘ZGARISHLAR VA YANGI YUTUQLARNING TAHLILI**

### **ИЗМЕНЕНИЯ И АНАЛИЗ НОВЫЕ ДОСТИЖЕНИЯ В ОБЛАСТИ НЕВРОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

#### **ANALYSIS OF CHANGES AND NEW ACHIEVEMENTS IN THE FIELD OF NEUROLOGY IN UZBEKISTAN**

**Xudayberdiyev Rustamjon Ibragimovich**

*Tibbiyot fakulteti talabasi*

*Osiyo Xalqaro Universiteti*

*E-Mail: rustamjonibragimovich@gmail.com*

**Ilmiy rahbar: Komiljonova Oygul Olimjonovna**

*Fundamental tibbiyot kafedrası*

*Osiyo Xalqaro Universiteti*

*E-Mail: komiljonovaoygulolimjonovna@oxu.uz*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekistonda nevrologiya sohasidagi zamonaviy o‘zgarishlar va ilmiy yutuqlar tahlil qilinadi. Hududlarda nevrologik kasalliklarning ko‘payishi, ularning diagnostikasi va davolash usullaridagi yangilanishlar ko‘rib chiqiladi. Xususan, neyrodegenerativ kasalliklar, bolalar nevrologiyasi insult, va neyropsixiatriya sohalaridagi ilg‘or tadqiqotlar hamda innovatsion muolajalar muhokama qilinadi. Shuningdek, genetik tadqiqotlarning ahamiyati, neyroprotektiv terapiya va zamonaviy texnologiyalar asosida amalga oshirilayotgan neyroeabilitatsiya usullari haqida ma’lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Bolalar nevrologiyasi, nevrologik kasalliklar, insult, neyroeabilitatsiya, zamonaviy diagnostika, innovatsion muolajalar, neyrodegenerativ kasalliklar, neyropsixiatriya, genetik tadqiqotlar, neyroprotektiv terapiya.

**Аннотация:** В данной статье анализируются современные изменения и научные достижения в области неврологии в Узбекистане. Рассматриваются вопросы увеличения числа неврологических заболеваний в регионах, а также нововведения в их диагностике и методах лечения. В частности, обсуждаются передовые исследования и инновационные методы лечения в таких направлениях, как нейродегенеративные заболевания, детская неврология, инсульт и нейropsychиатрия. Кроме того, рассматривается значение генетических исследований, нейропротективной терапии и современных технологий, применяемых в нейрореабилитации.

**Ключевые слова:** Детская неврология, неврологические заболевания, инсульт, нейрореабилитация, современные методы диагностики, инновационные методы

лечения, нейродегенеративные заболевания, нейропсихиатрия, генетические исследования, нейропротективная терапия.

**Abstract:** This article analyzes modern changes and scientific achievements in the field of neurology in Uzbekistan. The increase in neurological diseases in different regions, advancements in their diagnosis, and updates in treatment methods are examined. In particular, leading research and innovative treatments in neurodegenerative diseases, pediatric neurology, stroke, and neuropsychiatry are discussed. Additionally, the significance of genetic research, neuroprotective therapy, and modern neurorehabilitation techniques based on advanced technologies are highlighted.

**Keywords:** Pediatric neurology, neurological diseases, stroke, neurorehabilitation, modern diagnostics, innovative treatments, neurodegenerative diseases, neuropsychiatry, genetic research, neuroprotective therapy.

## KIRISH

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida va Markaziy Osiyo mintaqasida ham nevrologik kasalliklarning ko‘payishi tibbiyot sohasida jiddiy muammolardan biriga aylanib bormoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra, har yili dunyoda 15 milliondan ortiq inson insultga uchraydi, ulardan 5 millioni hayotdan ko‘z yumadi, yana 5 millioni nogiron bo‘lib qoladi. O‘rta Osiyo mamlakatlarida esa insult va neyrodegenerativ kasalliklarning tarqalish darajasi yil sayin oshib bormoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2023-yilgi statistik ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakatda har yili 40 ming nafardan ortiq inson insult bilan kasallangan, shundan 15 foizi bir yil ichida hayotdan ko‘z yumadi, qolganlarning 40 foizi esa nogironlik holatiga tushib qoladi. Bundan tashqari, Altsgeymer kasalligi butun dunyoda har yili 11 millionga yaqin yangi holatlar bilan qayd etiladi. O‘rta Osiyo davlatlarida, xususan O‘zbekistonda demensiya bilan bog‘liq kasalliklarning 20 yilda ikki baravar ko‘payishi prognoz qilinmoqda. Parkinson kasalligi bilan kasallangan bemorlarning soni ham yildan-yilga ortib, so‘nggi yilda O‘zbekistonda 56 mingdan ortiq bemor qayd etilgan.

Tibbiyotning rivojlanishi, jumladan, neyroprotektiv terapiya va zamonaviy neyroreabilitatsiya usullarining joriy etilishi ushbu kasalliklarni erta tashxislash va davolash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Masalan, O‘zbekistonda 2022-yildan boshlab neyroprotektiv dorilarni qo‘llash bo‘yicha yangi protokollar ishlab chiqilgan bo‘lib, bu usullar insult bilan kasallangan bemorlarning tiklanish darajasini 30 foizni ga yaxshilashga yordam bergan. Shuningdek, genetik tadqiqotlarning rivojlanishi natijasida nevrologik kasalliklarning irsiy omillari chuqur o‘rganilmoqda. O‘zbekistonda 2021-yildan boshlab nevrologik kasalliklarga chalinish xavfini aniqlash bo‘yicha genetik testlar joriy etila boshlandi. Natijada erta tashxis qo‘yish va profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini 25 foizni ga oshirishga muvaffaq bo‘lindi.

Ushbu maqolada O‘zbekistonda nevrologiya sohasidagi zamonaviy o‘zgarishlar va ilmiy yutuqlar tahlil qilinadi. Xususan, nevrologik kasalliklarning tarqalishi, ularning oldini

olish, tashxislash va davolash usullari bo‘yicha so‘nggi yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot nevrologiya sohasida amalga oshirilayotgan innovatsiyalarni baholash hamda kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

#### 1. So‘nggi yillardagi o‘zgarishlar

Hozirgi vaqtda tibbiyot markazlari, shifoxonalar va ilmiy tadqiqot institutlari zamonaviy diagnostika vositalari bilan jihozlanib, innovatsion terapiya usullarini qo‘llamoqda.

Xususan: Magnit-rezonans tomografiya (MRT) va Kompyuter tomografiya (KT) kabi ilg‘or tasvirlash texnologiyalari keng joriy etildi. Genetik tahlillar asosida turli xil nevrologik kasalliklarni aniqlash imkoniyati ortdi.

Telemeditsina va masofaviy maslahat berish tizimlari rivojlandi.

So‘nggi ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda nevrologik kasalliklarga chalinish darajasi umumiy populyatsiyaning 15% ini tashkil etmoqda, bu esa sohada muhim tadbirlar o‘tkazish zaruratini oshirmoqda.

#### 2. Innovatsion diagnostika usullari

O‘zbekistonda nevrologik kasalliklarni aniqlashda quyidagi zamonaviy diagnostika usullari keng qo‘llanilmoqda:

Elektroensefalografiya (EEG) yordamida epilepsiya va boshqa neyropsixologik buzilishlarni aniqlash.

MRT va KT orqali o‘tkir va surunkali nevrologik kasalliklarning diagnostikasi.

Genetik tekshiruvlar orqali irsiy nevrologik kasalliklarni aniqlash.

Qon biomarkerlarining tahlili orqali Parkinson va Altsgeymer kasalliklarining dastlabki belgilari aniqlanmoqda.

O‘zbekistonda 2025-yilda 5000 dan ortiq MRT tekshiruvlari o‘tkazilib, ularning 45% i insult bilan bog‘liq holatlarni aniqlashda qo‘llanilgan.

#### 3. Yangi davolash usullari

Nevrologik kasalliklarning davolash usullari sezilarli darajada rivojlandi. Quyidagilar sohada muhim o‘zgarishlarni ifodalaydi:

Minimal invaziv neyroxirurgiya: Ochiq operatsiyalarga nisbatan kamroq jarohat yetkazuvchi amaliyotlar joriy qilinmoqda.

Biotexnologik terapiya: Neyrodegenerativ kasalliklarni (masalan, Parkinson va Altsgeymer kasalliklari) davolashda gen terapiyasi va hujayra terapiyasi qo‘llanilmoqda.

Reabilitatsiya markazlarining rivojlanishi: Insult va bosh miya shikastlanishidan so‘ng tiklanish jarayonlarini yaxshilash maqsadida maxsus markazlar faoliyat yuritmoqda.

2023-yilda Qozog‘istonda 1500 dan ortiq insultdan keyingi reabilitatsiya amaliyoti o‘tkazilib, bemorlarning 65-68 foizni to‘liq yoki qisman tiklanishiga erishgan.

#### 4. O‘zbekistonda nevrologik kasalliklarning epidemiologik tahlili

O‘zbekistonda eng ko‘p uchraydigan nevrologik kasalliklar quyidagilardan iborat:

Insult - yurak- qon tomir kasalliklari bilan bog‘liq ravishda keng tarqalgan.

2024-yilda O‘zbekistonda 20 mingdan ortiq insult holatlari qayd etilgan.

Epilepsiya - zamonaviy dorilar va terapiya usullari yordamida samarali nazorat qilinmoqda. O‘zbekistonda epilepsiya bilan kasallangan bemorlar soni 100 mingdan ortiq ekani ma’lum qilingan.

Nevrodegenerativ kasalliklar - Parkinson va Altsgeymer kasalliklari bilan bog‘liq tadqiqotlar ko‘paymoqda. Qirg‘izistonda Altsgeymer kasalligiga chalingan bemorlarning soni so‘nggi 5 yilda 30% ga oshgan.

#### 5. Rivojlanish yo‘nalishlari

O‘zbekistonda nevrologiyasi oldida turgan asosiy vazifalar quyidagilardan iboratligi to‘g‘risida fikr yuritish mumkin.

Ilmiy tadqiqotlarning kuchaytirilishi natijasi sifatida genetik tadqiqotlar va neyrobiologik izlanishlarga e‘tiborning ortib borishi.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish maqsadida Jahon miqyosidagi yetakchi ilmiy markazlar bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi.

Sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish natijasida Diagnostika jarayonlarini avtomatlashtirish va kasalliklarning dastlabki bosqichlarini aniqlashning osonlashuviga, aniqlashuviga erishish ham anchagina muammolarni hal qilmoqda. 2025-yilga qadar O‘zbekistonda sun‘iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan diagnostika tizimlarini ishlab chiqish rejalashtirilmoqda. Tibbiyot ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishi natijasida O‘zbekistonda nevrologik kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va samarali davolash imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda.

### XULOSA

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida, jumladan, O‘rta Osiyo mintaqasida ham nevrologik kasalliklarning ko‘payishi tibbiyot sohasida jiddiy muammolardan biriga aylanib bormoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra, har yili dunyoda 15 milliondan ortiq inson insultga uchraydi, ulardan 5 millioni hayotdan ko‘z yumadi, yana 5 millioni nogiron bo‘lib qoladi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa insult va nevrodegenerativ kasalliklarning tarqalish darajasi yil sayin oshib bormoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2023-yilgi statistik ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakatda har yili 40 ming nafardan ortiq inson insult bilan kasallanadi. Ulardan 15 foizi bir yil ichida hayotdan ko‘z yumadi, qolganlarning 40 foizi esa nogironlik holatiga tushib qoladi. Tadqiqotchilar 2020-yildan 2050-yilgacha insult bilan bog‘liq o‘limlar soni 6,6 milliondan 9,7 million kishigacha oshishini taxmin qilmoqdalar. Markaziy Osiyo mintaqasida ham bu kasallikning tarqalish darajasi ortib borayotgani sog‘liqni saqlash tizimi uchun jiddiy muammo tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, kasallikning oldini olish, barvaqt aniqlash va samarali davolash choralari yanada kuchaytirilishi lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimov Sh. "Nevrologiya asoslari" Toshkent: Fan, 2020.
2. Rasulov B. "Nevrologik kasalliklar diagnostikasi va davolash usullari" Toshkent, 2019.

3. Qodirov I., Jo‘rayev U. "Tibbiyotda neyroprotektiv terapiyaning roli" Toshkent tibbiyot jurnali, 2021.
4. Tursunov S. "O‘zbekiston nevrologiyasining zamonaviy muammolari" Toshkent: Ibn Sino, 2022.
5. Захарова Т.Н. "Детская неврология" Екатеринбург, 2021.
6. Морозов Ю.А. "Психоневрология и когнитивные расстройства" Новосибирск, 2020.
7. Козлов В.Д. "Нейропсихиатрия и новые технологии лечения" Москва, 2023.
8. Wilson R. "Genetic Research in Neurology" Elsevier, 2022.
9. International Neurology Association. "Guidelines on Neurological Disease Management" New York, 2023.